
2- SONLI DMTTDA "SOG'LOM OVQATLANISH KUNI"GA BAG'ISHLANGAN TADBIR BO'LIB O'TDI

Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan o'tkazib kelinayotgan "Sog'lom ovqatlanish kuni"ga bag'islangan tadbirlardan asosiy maqsad maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni xavfsiz va sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni takomillashtirishdir.

Shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalari oshxonalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilish, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlar samaradorligini oshirish, ovqat tayyorlash uchun mas'ul xodimlar (hamshiralar, oshpazlar va ombor mudirlari)ning bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.

Tumandagi 2-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lib o'tgan tadbirda mutaxassislar tomonidan "To'g'ri ovqatlanish-salomatlik garovi" mavzusida ko'rgazmalar namoyish etildi.

Tadbirda bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun rasmlar orqali iste'molga yaroqli bo'lgan mahsulotlar ko'rsatib o'tildi. Bolajonlarga meva va sabzavotlar to'g'risida batafsil tushunchalar berildi.

2023-09-28 15:00:25